



**An'anaviy yoki elektron obuna
siz uchun qay biri qulay?**

2-betda o'qing



**Fermarga qo'llanilgan
jarima bekor qilindi**

5-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
17-DEKABR
SESHANBA

№ 50
(1462)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



**Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!**



**Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!**

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

ADLIYA XABARI

ADLIYA VAZIRI BMTNING NARKOTIKLAR VA JINOYATCHILIK BO'YICHA BOSHQARMASINING MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY VAKILINI QABUL QILDI



ADLIYA vaziri Akbar Toshqulov yangi tayinlangan BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakili Oliver Stolpe bilan uchrashdi.

Uchrashuv boshida adliya vaziri A. Toshqulov mehmonlarni qutlab,

vazirlik va tashkilot o'rtasida yaqin hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilganligini hamda ular jadal suratlari bilan rivojlanib borayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, A. Toshqulov BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha

boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikda Respublika sud-eks-pertiza markazining laboratoriyalari xalqaro akkreditatsiya standartiga ega bo'lganligi, doimiy ravishda mar-

kaz xodimlarining malakasi oshirib kelinayotganligini bildirdi.

O'z o'rnida, Janob Stolpe tashkil qilingan uchrashuv uchun minnatdorchilik bildirib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda Adliya vazirligining o'zni muhim ekanligini ta'kidladi.

Uchrashuv davomida tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish va aktivlarni qaytarish tizimini mustahkamlash, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, jinoiy sudlov va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha qonunchilikni takomillash-tirish sohalarida amaliy hamkorlikni jadallashtirish muhimligini qayd etdi.

Shu bilan birga, tomonlar yirik loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro va mintaqaviy tadbirlarda vazirlik vakillari ishtirokini ta'minlash hamda hamkorlikda xalqaro tashkilotlarning texnik yordamini jalb qilishga kelishib oldilar.

HUQUQIY DAYJEST

✓ Tadbirkorlik faoliyatini baholash takomillashtiriladi

DAVLATIMIZ rahbarining joriy yil 10-dekabr kuni imzolagan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlarni belgilash mezonlari takomillashtiriladi. Shuningdek, yangidan tashkil qilingan tadbirkorlarning rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari maqbullashtiriladi.

✓ Harbiy xizmatga yollanmang!

Ayni paytda minglab hamyurtlarimiz mehnat qilish, o'qish va boshqa sabablar tufayli xorijiy davlatlarda yurishibdi. Ular orasida turli mojarolar yoki harbiy to'qnashuvlar yuz berayotgan mintaqalar ham bor. Binobarin, ana shu mamlakatlarda bo'lib turgan fuqarolarimizga Jinoyat kodeksining 154¹-moddasini yana bir karra eslatib o'tishni lozim topdik. Unga ko'ra, chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirishi bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

✓ Xodim intizomiy jazoga tortilsa...

Agar xodim intizomiy jazoga tortilsa, mazkur jazoning amal qilish muddati ichida unga nisbatan rag'batlantirish choralari, shu jumladan, mehnatga haq to'lash tizimiga kirmaydigan va mehnat natijalariga asoslanmagan mukofotlar ham (bayramlar, jumladan kasb bayramlari, yubileyler munosabati bilan va hokazolar) qo'llanilmaydi. Bu qoida Mehnat kodeksining 299-moddasida o'z aksini topgan.

@huquqiyaxborot

6 MOHIYAT

KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARNI ANIQLASHDA MAQBUL YO‘L

JAHON tajribasi korrupsiyaga oid jinoyatlarga tayinlanayotgan jazolar qanchalik qat’iy bo‘lmasin, bu illatni yo‘qotib bo‘lmayotganini ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashish, uning barvaqt aniqlanishi va oldi olinishi eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

Shu o‘rinda, Prezidentimizning 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qonuniga asosan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash tizimi yo‘lga qo‘yilishi muhim o‘rin tutadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tashkilotning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash, korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish, tashkilotlarda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi ichki (komplaens) nazorat tuzilmalarining asosiy faoliyati qatorida belgilangan.

Tashkilotdagi maxsus bo‘linmalarining bunday faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yil 31-avgustdagi hamda Adliya vazirligining xuddi shu sanadagi qarorlari bilan tasdiqlangan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti”ga muvofiq amalga oshiriladi.



Uslubiyotga muvofiq, korrupsiyaviy xavf-xatar deganda, shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli tushuniladi. Demak, korrupsiyaviy xavf-xatar bu hali sodir etilmagan, lekin sodir etilishi mumkin bo‘lgan holat.

Ichki va tashqi axborot manbalari muhim

Tashkilot faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash ichki va tashqi axborot manbalari asosida amalga oshiriladi.

Bunda, ichki axborot manbalari sifatida, masalan, tashkilot xodimlarining mansab yo‘riqnomalari, ichki xizmat tekshiruvi materiallari, attestatsiya komissiyasi qarorlari, odob-axloq komissiyasi majlislarining yig‘ilish bayonnomalari, tashkilot xodimlari orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma, tashqi axborot manbalari sifatida esa tashkilot faoliyati to‘g‘risidagi huquq-

buzarliklar to‘g‘risidagi murojaatlar (xabarlar), huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar, fuqarolardan kelib tushgan shikoyatlar va murojaatlar, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet tarmoqlaridagi nashrlar va boshqalar e‘tirof etilishi mumkin.

Tashkilot faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi past, o‘rta va yuqori o‘lchovlarda va uslubiyot bilan belgilangan mezonlar asosida baholanadi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini belgilash davlat tashkiloti rahbari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari tashkilotning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo‘linmalaridagi maxsus bo‘linma mas‘ul shaxslari tomonidan ishlab chiqiladigan “Tashkilotning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi” va “Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi”da o‘z aksini topadi. Mazkur hujjatlarning loyihalari umumlashtirish uchun tashkilotning markaziy apparatining (vazirlik, qo‘mita, agentlik, inspeksiya) maxsus bo‘linmasiga taqdim etiladi.

So‘ngra, tashkilotning maxsus bo‘linmasi tomonidan tashkilotning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi shakllantiriladi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yuritilayotgan “E-anticor.uz” elektron platformasi ma‘lumotlar bazasiga har yili 1-fevralga qadar kiritiladi. Shu asosda avtomatik tarzda “Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri” shakllantiriladi.

Nihoyat, “Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri”dan kelib chiqib, tashkilot markaziy apparatining maxsus bo‘linmasi (ishchi guruhi) tomonidan “Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi” va “Tashkilotning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati”ning oxirgi ko‘rinishi shakllanadi.

Rafik SHAKUROV,
Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

AHOLINING huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha aniq mexanizmlar va huquqiy asoslar yaratilgan hamda amaliyotga tatbiq etilgan. Barcha xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardor bo‘lishi zarur, albatta.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiya illatiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda va ommaviy axborot vositalarida yoritilmoqda.

Xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi o‘rganilmoqda. Shuningdek, tanqidiy yondashgan holda milliy



qonunchilik va amaliyotga tatbiq etilmoqda.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning

muqarrarligi prinsipini ta‘minlash muhim sanaladi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash masalasi qat’iy hisobga olingan.

Bu, o‘z navbatida, fuqarolarimizda korrupsiyaga, aniqroq aytganda, har qanday qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik kayfiyati, madaniyati shakllanishiga ham bog‘liq. Chunki har qanday qonunbuzarliklar sodir etilishiga, ko‘payishiga ko‘p hollarda o‘zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo‘lib kelmoqda. Barchaning yakdilligi, yurt taqdiriga daxldorligi kuchayishi har qanday illatning batamom barham topishiga xizmat qiladi.

Korrupsiya esa, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi. Bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta‘sir etmay qolmaydi.

Fuqarolarda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, ularning o‘z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko‘paytiradi. Siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shakllangan demokratik mezon, rivojlangan davlatlar andozasiga o‘xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, zamon talabidan orqada qolmoqda. Bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Jamiyatda ustuvor soha – ta‘lim tizimida tahsil oladigan o‘smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg‘otish, latent jinoyatchilikka barham berish muammosi oldimizda ko‘ndalang turibdi. Shu bilan birga, jamiyatda mavjud korrupsiya illatini yengib bo‘lmaydi, degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani ham eng katta kamchiligidir.

To‘lqin TO‘XTASINOV,
huquqshunos, II-darajali adliya maslahatchisi